

## Darajali Geometriyani Algebraik Tenglamalarda Qo'llab Asimptotik Yechimlarini Topish

Po'latov Baxtiyor Sobirovich

O'zMU JF katta o'qituvchisi

bpsbaxtiyor@gmail.com

Ibrohimov Javohir Bahrom o'g'li

O'zMU JF assisenti

javohir1003@gmail.com

**Annotatsiya.** Ishda (1) tenglama bilan berilgan chiziqning  $x_1 = x_2 = 0$  nuqta atrofida o'zini qanday tutishini qarab chiqilgan [1].

**Kalit so'zlar:** Nyuton ko'pyoqligi, qisqartma tenglama, darajali geometriya, asimptota.

Dekart yaprog'i deb ataluvchi va quyidagi tenglama bilan berilgan tekis algebraik egri chiziqni qaraymiz:



$$f(X) \stackrel{\text{def}}{=} x_1^3 + x_2^3 - 12x_1x_2 = 0. \quad (1)$$

Bu tenglamaning yechimlarini nol nuqta atrofida  $x_1 = x_2 = 0$  va cheksizlikda o'rGANAMIZ, bunda oshkormas funksiya haqidagi teoremadan foydalanimaydi. Bu tenglamaning daraja ko'rsatkichlaridan iborat to'plam quyidagi nuqtalardan iborat

$$D = \{Q: Q_1 = (3,0), Q_2 = (0,3), Q_3 = (1,1)\}.$$

Bu nuqtalarni  $(q_1, q_2)$  koordinatalar tekisligiga qo'yib chiqamiz. Ularning qavariq qobig'i  $\Gamma$  uchburchakdir (1- rasm). Uning  $\Gamma_1^{(1)}$  qirrasi  $Q_1$  va  $Q_3$  uchlari orasida yotadi. Shuning uchun u qisqartma tenglamaga mos keladi

$$\hat{f}_1^{(1)}(X) \stackrel{\text{def}}{=} x_1^3 - 12x_1x_2 = 0. \quad (2)$$



Uning notrivial yechimi  $x_2 = \frac{x_1^2}{12}$  (2) tenglama yechimlari  $\mathcal{F}_1$  shoxining birinchi yaqinlashuvisi bo'ladi.  $\mathcal{F}_1$  shoxchasi  $x_1 = x_2 = 0$  nuqtadan o'tadi.  $\Gamma_2^{(1)}$  qirrasi  $Q_2$  va  $Q_3$  uchlari orasida yotadi va uning qisqartma tenglamasi

$$\hat{f}_2^{(1)}(X) \stackrel{\text{def}}{=} x_2^3 - 12x_1x_2 = 0 \quad (3)$$

ko'rinishda bo'ladi. Uning notrivial yechimi  $x_1 = \frac{x_2^2}{12}$ ,  $\mathcal{F}_2$  shoxning noldan o'tuvchi ikkinchi tarmog'i uchun birinchi yaqinlashuvchisidir.  $\mathcal{F}_1$  shoxi uchun qo'shimcha taxminiy yechimlarni olish uchun darajali almashtirishni qo'llab

$$\begin{cases} y_1 = x_1^2 x_2^{-1}, \\ y_2 = x_1^{-1} x_2, \end{cases} \text{ teskarisiga almashtiramiz } \begin{cases} x_1 = y_1 y_2, \\ x_2 = y_1 y_2^2. \end{cases} \quad (4)$$

Bu (4) sistemani (1) va (2) tenglamalarga olib borib

$$\begin{aligned} f &\stackrel{\text{def}}{=} y_1^3 y_2^3 + y_1^3 y_2^6 - 12y_1^2 y_2^3 = y_1^2 y_2^3 (y_1 + y_1 y_2^3 - 12) = 0, \\ \hat{f}_1^{(1)} &\stackrel{\text{def}}{=} y_1^3 y_2^3 - 12y_1^2 y_2^3 = y_1^2 y_2^3 (y_1 - 12) = 0. \end{aligned} \quad (5)$$

Ularni  $y_1^2 y_2^3$  ga qisqartirib,

$$y_1 + y_1 y_2^3 - 12 = 0 \quad (6)$$

to‘liq tenglamani va uning qisqartma tenglamasi  $y_1 - 12 = 0$  tenglamasini hosil qilamiz.[2] (6) tenglama uchun tashuvchi va ko‘pyoq (2-rasmida keltirilgan). Qisqartma tenglamaning  $y_1 = 12$  ildizi oddiy. Shuning uchun  $y_1 = 12, y_2 = 0$  nuqtalar atrofida to‘la (6) tenglama  $y_1 - 12 = 0$  ni  $y_2$  ning darajali qatori sifatida hosil bo‘ladi. Bu yerda buni bajarish aniq:  $y_1 = \frac{12}{1+y_2^3}$ . Bu ifodani (4) ning o‘ng tomonidagi formulaga qo‘yib,  $\mathcal{F}_1$  shoxa uchun quyidagi parametrik ifodani


$$x_1 = \frac{12y_2}{1+y_2^3}, \quad x_2 = \frac{12y_2^2}{1+y_2^3}$$

ni hosil qilamiz.

$\Gamma_3^{(1)}$  qirrada  $Q_1, Q_2$  nuqtalar joylashgan va unga

$$x_1^3 + x_2^3 = 0 \text{ ya'ni } x_1^3 + x_2^3 = 0$$

qisqartma tenglama mos keladi. Uning yagona yechimi  $x_1 + x_2 = 0$  Dekart yaprog‘ining  $x_1 + x_2 = -4$  asimptotasining birinchi yaqinlashishi bo‘ladi (3-rasmida keltirilgan). Uning cheksizga ketuvchi shoxalari uchun asimptotik yoyilmani hosil qilish uchun  $z_1 = x_1, z_2 = x_1^{-1} x_2$  darajali almashtirishlarni bajarish kerak bo‘ladi.



3-rasm. Dekart yaprog‘i

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. B.S. Po'latov, A.A. Azimov "Darajali geometriyani oddiy differensial tenglamalarda qo'llanilishi" Magistrlarning XVIII ilmiy konferensiya materiallari SamDU 2018-y.
2. Xurramov Y.S, Po'latov B.S, Ibrohimov J.B "Ko'phadning keltirilmaslik alomati" , Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzARB muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, O'zMU Jizzax filiali 2022-y. I tom, 399-401-bet.